

## **NEFT VA GAZ SANOATI KORXONALARINI INNOVATSION SAMARALI RIVOJLANTIRISH**

*Islom Karimov nomidagi TDTU Neft va gaz fakulteti 146-22 guruh  
(Iqtisodiyot) talabasi*

***Shamshod Nosirjonovich G'ofurov***

[shamshodg954@gmail.com.](mailto:shamshodg954@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi sanoatining yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan va iqtisodiyotimizni rivojlantirishdagi drayver soha hisoblangan neft va gaz korxonalarining tashkiliy tuzilishi, ushbu tarmoq ichidagi korxonalarning tahlili, samarali rivojlantirishga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillari va ularning faoliyatini yaqin kelajakda yaxshilash uchun ko'rsatmalar, bosqichlar va yo'nalishlar ko'rsatib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** samarali rivojlantirish, samarali boshqaruvning shartlari, samarali boshqaruv tamoyillari, innovatsiyaning ta'siri, moliyaviy ahvol, loyihalarni moliyalashtirish, moliyalashtirish manbayi, neft va gaz korxonalari, samarali boshqaruv uslublari, boshqaruvning umumiy tuzilmasi.

**Kirish** Bugungi kunda jahonda sanoat ishlab chiqarish rivojlanish tendensiyalariga ko'ra, jumladan neft va gaz canoatini resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardoshlikni ustuvor darajada innovatsion va raqamli texnologiyalar, ishlab chiqarishni optimal tashkil qilish, mehnat unumdorligini oshirish, munosib ish joylarini tashkil qilish asosida rivojlantirish dolzarb muammolar sifatida qaratmoqda. O'z navbatida, innovatsion texnologiyalar mazkur korxonalarda qazib olish, qayta ishlash va uzatish kabi funksional va amaliy vazifalarni birlashtiruvchi dastak sifatida innovatsion texnologiyalar zaruriy vosita hisoblanadi. O'zbekiston neft va gaz sanoati muhim iqtisodiyot sohasidagi bir bo'limni egallaydi. Bu sanoat, yalpi ichki mahsulot, byudjet

daromadlari va valyuta tushumlarining asosiy manbalaridan biri bo‘lib, sanoat ishlab chiqarishi va investitsiyalarni jalb qilish tarkibida muhim rol o‘ynaydi. Neft va gaz sanoatini rivojlantirish Mamlakatning ish bilan band aholisining 1%iga yaqini faoliyat yuritadigan neft va gaz sanoati, ishlab chiqarish, tashish, qayta ishlash samaradorligini oshirish, eng muhimi, iste’molchilarni tabiiy gaz bilan uzlusiz ta’minlash imkonini beradi. Shuningdek, loyihalarni amalga oshirishga nafaqat mablag‘ga, balki zamonaviy texnologiyalar va tajribaga ega bo‘lgan investorlarni ham jalb etish imkonini beradi. Energetika vazirligi tomonidan tabiiy gazni chuqur qayta ishlash hamda uning samaradorligini oshirish va bozor munosabatlariga o‘tkazish maqsadida keng ko‘lamli loyihibar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. “O‘zbekneftgaz” AJ tasarrufida 118 ta kon mavjud bo‘lib, shundan 85 tasidan tabiiy gaz qazib olinmoqda. Qolgan 33 ta konda geologiya-qidiruv ishlari amalga oshirilmoqda. “O‘zbekneftgaz” AJning O‘zbekistonda uglevodorodlarni qazib chiqarishdagi ulushi tabiiy gaz qazib chiqarish bo‘yicha 63%, gaz kondensati qazib chiqarish bo‘yicha 67%, neft qazib chiqarish bo‘yicha 13%ni tashkil etadi. Tizimni talab darajasida ishlashi, yangi konlar qidirish va quduqlar ekspluatatsiyasi uchun hamda kompaniyaning ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiyalash jarayonlari uchun 2022-yilda jami 655,2 mln dollar qiymatida investitsiyalar o‘zlashtirildi. Shundan 355,2 mln dollari to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga to‘g‘ri keladi. [6]

**Mavzuning dolzarbliji** Neft-gaz sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu soha nafaqat energiya manbai, balki ko‘plab tarmoqlar uchun zarur bo‘lgan polimerlar, organik kimyoviy moddalar hamda azotli mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarishda asosiy xomashyo bazasi hisoblanadi. Uglevodorodlar zaxirasini ko‘paytirish bo‘yicha aniq choralar ko‘rilmasa, yaqin 10-15 yilda mavjud zaxira 2 barobarga kamayadi. Shu bois, “O‘zbekneftgaz” jamiyati rahbariyati geologiya-qidiruv ishlari va qazib olish hajmini oshirish, konlarni modernizatsiya qilish va yangilarini ochish, neft-gaz xomashyosini chuqur qayta ishlash, investitsiyalarni ko‘paytirish bo‘yicha amaliy ishlarni amalga oshirmoqda. Juhon tajribasi asosida bu ishlarga investorlarni kengroq jalb

qilish, davlat va investorlar manfaatini himoya qilishni ta'minlaydigan yangi mexanizmlar ishlab chiqish vazifa sifatida belgilandi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti "Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruva tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi.[1] Neft-gaz sohasini yanada rivojlantirish uchun 2030-yilgacha geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, uglevodorodlarni qazib chiqarish va chuqur qayta ishlash bo'yicha umumiyligi qiymati 36,5 milliard dollarlik 30 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish belgilangan. Bundan tashqari, gaz taqsimot tizimini modernizatsiya qilish, gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilish tizimi tizimini joriy etish loyihalariga xorijiy investitsiya va kreditlarni jalb qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.[2] So'nggi 20 yilda tabiiy gaz qazib olish hajmi 8 foizga oshgani holda mamlakat korxonalarini tomonidan uni qazib olish hajmi 29 foizga pasaydi, 2012-2022 -yilda tasdiqlangan tabiiy gaz zaxiralari 6 foizga qisqardi, o'tgan 5 yil davomida tabiiy gazning tabiiy zaxiralari o'rnini to'ldirish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 70 foizga yaqin hajmni tashkil etdi. 2021-2022 yillarda moliyaviy mablag'larning yetishmasligi va moddiy-texnik resurslarning taqchilligi natijasida tabiiy gaz qazib olishning o'sishi prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 42 foizni tashkil etgan xolos. Respublika iqtisodiyoti va aholisining energiya resurslariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, neft-gaz tarmog'i korxonalarini moliyaviy sog'lomlashtirishni ta'minlash, qabul qilingan xalqaro amaliyot asosida sog'lom raqobatni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni va ilg'or boshqaruva usullarini joriy etish maqsadida: Xalqaro konsalting kompaniyalari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining neft-gaz tarmog'ini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi** Ushbu maqola mavzusi bo'yicha izlanishlar olib borish jarayonida turli usullardan foydalanilgan. Ma'lumot yig'ish, saralashda ayirish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijasida olingan natijalar induksiya usuli orqali yakuniy xulosa sifatida chiqarildi. Moliyaviy va moliyaviy bo'limgan ma'lumotlarni taqqoslash va

tadqiqot natijalarini olish uchun statistika keng qo'llanildi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar olib borishda tahlil qilish usuli orqali korporativ boshqaruv va tashkiliy xattiharakatlar o'rtaсидаги munosabatlar o'рганildi. Muhokamani umumlashtirishni hisoblash uchun sintez usuli ishlatilgan.

Yuqoridagi uslublarni amalda sinagan holda quyidagi mexanizmlarni sanoat korxonasini innovatsion holatini yaxshilovchi omillar sifatida aytib o'tamiz:

-innovatsion holatni mustahkamlash – uning muxim elementi barqaror turg'unlik darajasini saqlab qolish uchun atrof muhitning ta'sirini bartraf etish va monitoringini o'tkazishdan iborat;

-davlat tomonidan tartibga solish – ushbu mexanizmni ishlab chiqsh iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda sanoat korxonasining turli parametrlariga davlat ta'sirini shakllantirishning iqtisodiy-ijtimoiy usullari asosida boshqaruv munosabatlari shakllanish tizimini ifodalaydi;

-byudjet-soliq – to'g'ridan to'g'ri xo'jalik yuritishni tartibga solish byudjet asosida tartibga solish hisoblanadi. Innovatiyalarni sanoat korxonasiга olib kelish va qo'llashda hamda tartiblashda davlat xarajatlarini qoplash uchunmoliyaviy mablag'lar bilan ta'minlovchi vosita soliq hisoblanadi.

### **Adabiyotlar tahili**

Innovatsiyalar haqida tayyorlangan adabiyotlar (turli kitoblar, darsliklar, ilmiy maqola va monografiyalar)da “raqamli texnologiya” haqida juda ko‘p qirrali fikr va mushohadalar keltirilgan bo‘lib, ular xususida yagona yondashuv mavjud emas. O‘rganishlarimiz va tadqiqodlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, “innovatsiyalar” atamasi dastlab 1995-yillarda Don Tapskott tomonidan “Raqamli iqtisodiyot: Tarmoq razvedkasi va xavfi” asarida qo’llanilgan. Don Tapskottning fikriga ko‘ra, raqamli iqtisodiyotda barcha jarayonlar “raqamli elektron tizimga, ya’ni internet, raqamli ma’lumotlar va kompyuter texnologiyalariga asoslanadi”. Bunda jamiyatda kechayotgan iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar, biznes, moliya – kredit xizmatlari va boshqa qator faoliyatlar intenet (web) va raqamli aloqalarni amalga oshirishga xizmat qiladigan elektron tenologiyalar asosida

amalga oshiriladi.<sup>1</sup> Jahonda sanoat korxonalarida innovatsion rivojlantirishga bo'lgan munosabat XX asrning 70-yillaridan yanada ortib, bu korxonalarda innovatsion tuzilmalarni shakllantirishga turli darajalarda taraqqiy etgan davlatlar alohida e'tibor qarata boshladilar. Bu davrga kelib, raqamlashtirish orqali xalqaro global transmilliy korporatsiyalar tashkil topdi, turli innovatsion modellari joriy etildi. Negaki, olimlar resurslar cheklangan va texnikaning karrasiga rivojlanayotgan bir sharoitda sanoatda yangiliklarni jadallik bilan qo'llash va qo'shimcha resurslarsiz barqaror rivojlanishga erishish uchun turli yangiliklar zarurligini tushunib yetishdi. Xususan, jahon amaliyotida innovatsiyalarni sanoatning neft va gaz tarmog'ida sinab ko'rish va kelajak uchun zamin hoxirlash borasidagi ishlar olimlar tomonidan bir qator bahs- munozaralarga sabab bo'lgan. E. Brinolfsson va B.Kaxin fikricha raqamli iqtisodiyot tarkibiga innovatsiyalarlar, shuningdek axborotlarni qayta ishlaydigan innovatsiyalarlar, innovatsiyalar yordamida taklif etiladigan ilab chiqarisht va xizmatlarni kiritadi. B.Karlsson va R.Stou fikricha esa ishlangan konsepsiyasida innovatsiyalaryordamida iqtisodiyotni transformatsiya qilish jarayoniga ta'sirini rivojlantirdi va innovatsiyalar o'zaro bir – biriga mujassamlashtirgan holda nafaqat ishlab chiqarish sohasini, balki qayta ishlash tizimining rivojida ham muhim o'rin tutishi mumkinligini asoslab berdi. Sanoat korxonalarida innovatsiyalarini qo'llash asosida takomillash-tirish muammolariga oid masalalar MDH davlatlari olimlaridan: M.Kastells, B.Panshin, A.Sokolov, A.Kunsman, R.Buxt, R.Xiks, M.Polojixina, I.Strelkova, M.Kalujskiy, S.Plugotarenko, .R.Guseinov, va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Mamlakatimizda sanoat korxonalarini to'g'ri va samarali boshqarishga doir ilmiy fanlar tarixiy ildizlarga asoslangan holda barqaror rivojlanishni va o'zgarishni boshidan kechirmoqda. Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarini samarali qo'llash, boshqaruvi va samaradorligini oshirish masalalari B.A.Begalov, T.K.Iminov, A.N.Aripov, N.A.Iminova, N.M.Maxmudov, M.A.Maxkamova, G.J.Allayeva, S.A.Nabiyeva, G.K.Taraxtiyeva, S.S.Salomov va boshqa bir qator olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan.<sup>2</sup>

## **Tahlil va natijalar**

Tadqiqot jarayonida neft va gaz sanoati korxonalarining innovatsion rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni grafik va statiskalar orqali tahlil qilish va istiqbolli rejalar uchun muhim mezonlar keltirib o'tilgan. Ushbu tahlil natijalarini "Buxoro neftni qayta ishlash zavodi" misolida o'rganamiz. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi (BNQIZ) — bu O'zbekistonning neft mahsulotlarini qayta ishlash uchun yirik sanoat korxonasi. U 1993-yil 3-avgustda O'zbekneftgaz tarkibiga kirib, Buxoro viloyati Qorovulbozor shahrida joylashgan. Zavodning qurilish ishlari 1997-yil 22-avgustda yakunlandi va ishga tushirildi. Bu zavod neft mahsulotlarini ishlab chiqaradi va 18 turdag'i mahsulotlarni qayta ishlashda ishtirok etadi. Birinchi navbatining yillik loyiha quvvati 2,5 million tonna gaz kondensatini qayta ishlashga mo'ljallangan. Zavodning loyiha qiymati deyarli 500 million dollarga teng bo'lgan. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi Fransiyaning Technip firmasi bilan hamkorlikda qurilgan. Mazkur firma zavod qurilishida 262 million dollar hissasi bilan ishtirok etgan. Shuningdek, Yaponianing Marubeni va Jey-Ji-Si kompaniyalari tomonidan konsorsium tuzilgan. Bundan tashqari, Kellog (KBR) firmasi, Chase Manhattan, Eximbank, Kredi kommersial de-Frans, BNP Paribas banklari, Yaponiya savdo-sanoat vazirligi, Fransiyaning Kofas sug'urta jamiyati zavod qurilishida o'z hissalarini qo'shdilar. Loyihalarni amalga tadbiq etish uchun o'tkazilgan tenderda Turkiyaning xalqaro pudratchilaridan bo'lgan Gama firmasi g'olib chiqqan. [4]

«Buxoro» neftni qayta ishlash zavodi gazoylni gidrotozalash qurilmasida «O'zbekneftgaz» AJ mutaxassislarining o'z kuchi bilan katalizator eng zamonaviy turiga almashtirildi. Natijada O'zbekistonda ilk bor Yevro-4 va Yevro-5 ekologik toifadagi dizel yonilg'isini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

2022-yilda «Buxoro» neftni qayta ishlash zavodida 945.9 ming tonna avtobenzin ishlab chiqarilib, bu miqdor zavodning 25 yillik tarixidagi eng yuqori ko'rsatkichga aylandi. O'zbekiston neft va gaz sanoati tarixida ilk bor neft mahsulotlari sotilishi to'liq bozor tamoyillari asosida joriy etildi.

Ko‘p yillar davomida reja qilib kelinayotgan «Buxoro neftni qayta ishlash zavodini modernizatsiya qilish va qayta qurish» loyihasiga birinchi qadam tashlandi va «O‘zbekneftgaz» AJ, «Honeywell UOP» (AQSh) va «SK E&C» (Janubiy Koreya) kompaniyalari o‘rtasida o‘zaro anglashuv memorandumi imzolanishi tarix sahifalaridan joy oldi. Yiliga 2,5 million tonna neft va gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega Buxoro neftni qayta ishlash zavodi 1997-yil 22-avgustda foydalanishga topshirilgan. Bugungi kunda yirik investitsiya loyihamalarini jalb etish orqali ushbu zavodni rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ishlar olib borilyapti.[5]

Yuqori oktanli benzin (AI-80, AI-91, AI-92, AI-95, AI-98), dizel yoqilg’isi (EKO, Yevro-4, 5), aviakerosin (Djet A-1), mazut, suyultitilgan gaz, oltingugurt, pirlorozli gazolin, uglevodorod erikichi kabi neft mahsulotlari ishlab chiqarildi. Zavodga xom ashayolarni yetkazib berish quvur va temir yo’llar orqali loyihalashtirilgan. Zavodda quyidagi texnologik qurilmalar mavjud:

- “Atmosfera bosimi ostida neft va gaz kondensatini haydash” (AT), yillik qayta ishlash quvvati 2500 ming tonna;
- “Neftni tuzsizlantirish va suvsizlantirish” (ELOU 1, 2), yillik qayta ishlash quvvati 1500 ming tonna;
- “Umumiy naftani vodorod yordamida tozalash” (GOB), yillik qayta ishlash quvvati 771 ming tonna;
- “Gazoylni vodorod yordamida tozalash” (GODT), yillik qayta ishlash quvvati 861 ming tonna;
- “Katalitik riforming” (CCR), yillik qayta ishlash quvvati 532,8 ming tonna;
- “Kerosinni demerkaptanlash”, yillik qayta ishlash quvvati 300 ming tonna.[6]

Zavodda 641 ming tonna avtobenzin (AI-80, AI-91, AI-92, AI-95, AI-98), 1026,6 ming tonna dizel yonilg’isi (EKO, Yevro-4, 5), 300 ming tonna aviakerosin (Djet A-1, uglevodorod erikichi), 480 ming tonna mazut (M-40, M-100) hamda boshqa turdagি neft mahsulotlari ishlab chiqariladi. Eslatib o‘tamiz, 2020-yilda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi tomonidan respublikada ilk bor “Yevro-4, -5” rusumidagi dizel

yonilg‘isini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari shu vaqt oralig‘ida “QuWatt” brendi ostida sifati yaxshilangan “AI-95” rusumidagi avtobenzin ishlab chiqarilishi o‘zlashtirildi.

Quyida BNQIZ da mahsulotlar va ularning salmog‘i haqida ba’zi raqamlarga to’xtalamiz. Ma’lumotlar 2022-2023-yillar uchun keltirilgan.

### **Buxoro neftni qayta ishlash zavodida 2022-2023-yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar**

#### **2-jadval**

Mahsulot turi	mahsulot miqdori, mln tonnada	
	2022-yil	2023-yil
ekologik dizel	317,372	331,869
Yevro-4	94,944	102,528
Yevro-5	53,91	61,87
suyuq uglevodorod	635,7	659,6
benzin	389,6	410,5

Yuqoridagilarning tahliliga keladigan bo’lsak, ortda qolgan 2 yil mobaynida ma’lum miqdordagi o’sish kuzatilganining guvohi bo’lganmiz. Ushbu keltirilgan 5ta mahsulot boshqalariga qaraaganda eng katta hajmga ega hisoblanadi. BNQIZ da eng katta ulushga ega bo’lgan mahsulot turi benzin va suyuq uglevodorod bo’lgan. Ikkalasi ham 0.05% va 0.04% o’sishga erishgan. Eng oxirgi o’rinlarda esa

Yevro-5(0,15%) hamda Yevro-4(0,9%) o’sishga erishganini ko’rishimiz mumkin. Chunki ular eng yangi mahsulot turi hisoblangan va o’sish ham shunga mos ravishda bo’lgan.

BNQIZ da 2022-yilda 8711,6 ming kVt/soat (106,8 foiz) elektr energiyasi va 1105,7 ming m<sup>3</sup> (110,1 foiz) yoqilg‘i gazi iqtisodiga erishildi. O’z navbatida, zavodda umumiyl quvvati 255 kVt bo’lgan quyosh fotoelektr stansiyalari va umumiyl hajmi 12,2 ming litr bo’lgan quyosh suv isitish moslamalari ishga tushirildi.

2023-yil may oyida “O‘zbekneftgaz” korxonalarida avtomobil benzini ishlab chiqarish atigi 23,2 ming tonnani tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich 2022-yilning may oyiga nisbatan 51,2 ming tonnaga kam. Kompaniyaning ta’kidlashicha, bunday ko‘rsatkichlar Buxoro neftni qayta ishlash zavodida 2023-yil 10-maydan 10-iyungacha bo‘lgan davrda modernizatsiya va rejali ta’mirlash ishlari amalga oshirilgani bilan bog‘liq. Zavodda bunday ishlar oxirgi marta 2018 -yilda amalga oshirilgan edi.

Endilikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi avtomobil benzinining kunlik ishlab chiqarish hajmini 2500 tonnadan 3000 tonnaga oshirdi. Shu bilan birga, amalga oshirilgan ishlarga qaramay, joriy yil oxirigacha “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan atigi 995,8 ming tonna benzin ishlab chiqarish ko‘zda tutilgan.

Endi esa mamlakatimizdagi eng yirik soliq subyektlari va ular orasida BNQIZ ning undagi hissasini keltirib o’tamiz.

### **2022-yilda O’zbekistonning ishlab chiqarish sohasidagi eng yaxshi aylanma mablag’ga ega korxonalar**

**1-jadval**

<b>Kompaniya nomi</b>	<b>Aylanma (trillion so‘m)</b>	<b>Soliq to‘lovlar (trillion so‘m)</b>	<b>Imtiyozlar (trillion so‘m)</b>
O‘zbekneftgaz	11 942	4 321	68.5
UzBAT	4 039	2 196.3	138.8
UzAuto Motors	33 068.3	2 052.1	702.9
<b>Buxoro neftni qayta ishlash zavodi</b>	<b>8 094.4</b>	<b>1 244</b>	<b>24</b>
Shurtan gaz kimyo majmuasi	3 331.3	1 069.3	3.8
Tolimarjon IES	2114.6	249.5	0.4
Qizilqumsement	1645.4	233.8	19.2
“O‘zbekkumir”	1232.3	229.3	33.9
Maxam Chirchiq	2226.4	321,8	78.2

Sanoat korxonalari orasida eng yuqori aylanma mablag’ga ega bo‘lgan O‘zbekneftgaz va UzAuto Motors korxonalaridan keying o’rinda BNQIZ egallaganini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa albatta ushbu korxonaning YaIM dagi ulushining ham yuqoriligini bildiradi. Soliq to’lash borasida esa 4-o’rinda UzBATdan keying o’rinda

turadi. O‘zbekneftgaz korxonasi esa sanoat korxonalari orasida eng yirik soliq to’lovchi sifatida e’tiborni tortadi.

### **Xulosa va takliflar**

Neft-gaz tarmog‘ida yetarlicha muammolar mavjud bo‘lib bu asosan texnik va texnologiyalarni yangilash bilan bog‘liq. Zaxiralar yetarli darajada oshirib borilmagani sababli 2018-yilda tabiiy gaz qazish va neft mahsulotlari ishlab chiqarish prognozi yetarli darajada bajarilmagan. Geologiya-qidiruv jaraenidagi burg‘ilash hajmi bo‘yicha prognoz 67%ga bajarilgan. Agar bu ishlar to‘liq ado etilganida zaxirani yanada oshirish mumkin bo‘lar edi. Shuningdek, ekspluatasion burg‘ilash ishlari prognozi 59%ga va qurilishi tugatilgan quduqlar soni prognozi 50%ga bajarilgan, xolos.

O‘zbekiston Respublikasining neft-gaz tarmog‘ini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha respublika ishchi komissiyasi tuzildi. Respublika ishchi komissiyasi (A.N.Aripov) bir oy muddatda:

a) amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasining neft-gaz tarmog‘ini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni tasdiqlaydi va bunda quyidagilarga alohida e’tibor qaratadi:

- uglevodorod xomashyosini qazib olish hajmlarini ko‘paytirish;
  - gaz-transport tizimini modernizatsiya qilish;
  - tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, yetkazib berish va sotishni hisob-kitob va nazorat qilish ishlarini takomillashtirish;
  - investitsiyaviy loyihalarni tanqidiy o‘rganish va maqbullashtirish, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish;
  - neft-gaz tarmog‘i korxonalarida moliyaviy intizomni mustahkamlash va narx shakllanishini takomillashtirish;
- b) O‘zbekiston Respublikasining neft-gaz tarmog‘ini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining har bir yo‘nalishi bo‘yicha ishchi komissiyalar tarkibini tasdiqlaydi;

v) tashkil qilinayotgan ishchi komissiyalari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining neft-gaz tarmog'ini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish uchun xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumatlar moliya tashkilotlari (XMI/XHMT) va konsalting kompaniyalarini jalg qilish choralarini ko'radi;

g) Energetika vazirligida boshqaruv xodimlari soni 20 shtat birlikdan oshmagan, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Yoqilg'i-energetika tarmog'ini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari, XMI/XHMT texnik ko'maklashish mablag'lari (grantlari) hisobidan moliyalashtiriladigan neft-gaz tarmog'ini isloh qilishni muvofiqlashtirish bo'yicha loyiha ofisi tashkil qilinishini ta'minlaydi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, muhim iqtisodiy tabiiy gazdan xalq xo'jaligidagi yoqilg'i sifatida emas, balki xomashyo sifatida foydalanish bilan bog'langan va tarmoq korxonalarida innovasion texnologiyalarini joriy etish orqali moliyaviy barqaror bo'limgan korxonalarning iqtisodiy sog'lomlashuviga erishish mumkinligiga oid quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan neft-gaz korxonalarining infratuzilmasini yaxshilash, bu bilan birga neft-gaz sohasiga, shuningdek, neft zaxiralarini qazib olish va ishlab chiqarish jaraeniga yangi innovasiya mahsulotlarini joriy qilishni taklif etmoqdamiz.

2. Qayta ishslash sanoati tarmoqlarida iqtisodiy o'sish dinamikasini integral baholash metodikasi mehnat unumдорligi, fondlar qaytimi ko'rsatkichlari asosida iqtisodiy o'sishning intensiv hamda tarmoqda bandlar va asosiy fondlar ko'rsatkichlari bo'yicha ekstensiv omillarini indeks taqqoslash usuli asosida takomillashtirildi. Mazkur metodikaga ko'ra, qayta ishslash sanoati tarmoqlarida umumiyl iqtisodiy o'sish indeksi 1,07 koeffisientga oshishiga erishilgan.

3. Zamonaviy innovatsion texnologiyalar va ulardan samarali foydalanishda rivojlangan sanoatlashgan mamlakatlarda tajribasidan foydalanasak, ayniqsa, Koreya Respublikasi innovatsion texnologiyalardan foydalanish tajribasi o'zining muhimligi

bilan ajralib turadi. Bu borada mamlakatimizda zamонвviy innovatsion va innovations texnologiyalar joriy qilishdagi muhim ustuvorliklaridan biri aynan xorijiy loyihiilar texnika va texnologiyalarni kiritishga qaratilgan strategiyani taklif etmoqdamiz.

### **Foydalanilgan adabiyot va web saytlar ro'yxati**

1. 4-bandning “a” kichik bandi uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-sonli Farmoni tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, (18.06.2020-y., 06/20/6010/0776-son)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-noyabrdagi Vazirlar Mahkamasidagi “Neft va gaz sanoatini rivojlantirish bo'yicha vazifalalr belgilab berildi” tahriri ostidagi yig'ilishidan.
3. Begalov B.A – “Axborot komunikasiyalar bozorining shakllanish va rivojlanish tendensiylarini ekonometrik modellashtirish”, Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya avtoreferati. – T.: 2001.
4. “O‘zbekneftgaz”: Buxoro neftni qayta ishlash zavodi tashkil etilganiga 25 yil to‘ldi“. Qaraldi: 26-iyul 2023-yil.
5. B.Soliyev. “*Buxoro neftni qayta ishlash zavodi*”. Toshkent: A.Navoiy nomidahи O‘zbekiston Milliy kutubxonasi 2007 — 25 bet. ISBN 978-9943-06-060-9.
6. „История компании“. Qaraldi: 26-iyul 2023-yil.
7. „Бухоро нефтни қайта ишлаш заводи: экологик тоза ва сифатли маҳсулотлар“. Uza.uz. Qaraldi: 2021-yil 20-dekabr.
8. [www.ung.uz](http://www.ung.uz)
9. [bnpz.uz](http://bnpz.uz)
10. “Gazeta-uz”. 25.01.2022.